



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA MNEMONIKANI ROLI VA AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Sirojiddinova Shahribonu

Muallif: Baxtiyorova Moxinur

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda mnemonika usulini o'rni, mnemonika metodlari va bu metodlarni xorijiy til o'rganuvchilar tomonidan qay usulda foydalanishi yoritildi.

Annotation: In this article, I will cast the light on what are mnemonics, mnemonic methods and how they are used by beginners and advanced language Learners in learning foreign languages

Key words: Mnemonika, yangi til o'rganuvchilari, lug'at, lingvistik bilimlilar o'quvchilar, o'qish amaliyoti, gapirish amaliyoti, yozish amaliyoti va eslab qolish qobiliyati.

Key words: Mnemonika, beginners, vocabulary, upper - intermediate students, reading, speaking, writing and memory ability.

Dunyo rivojlanyapti. Insonlarda dunyoni, uning ilmlarini o'rganishga qiziqish ortyapti. Albatta, O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda emas. Xorijiy tillarni o'rganish davr talabiga aylanganligini hisobga oladigan bo'lsak, xorijiy til o'rganuvchilar soni ham muvofiq ravishda oshib bormoqda. Xorijiy tillarni o'rganish qay darajada muhimligini prezidentimizning islohotlarida ko'rishimiz mumkin. Bunga yaqqol misol sifatida magistraturani olaylik, magistrant kamida bitta tildan B2 (CEFR nazarda tutilyapti) darajada bilimga ega bolishi talab etiladi. Shunday qilib, kelajakda o'z kasbini mohir egallagan, yangiliklardan xabardor va yangi texnologiyalar va metodlarga moslashuvchan kadrlarni tayyorlash jarayonida xorijiy tillarni o'rganish muhim o'rin tutar ekan, qanday qilib chet tilini mukammal, samarali va qisqa vaqtda o'rganamiz?

Hozirgi kunda har ikkita o'quvchidan biri qaysidir chet tilini o'rganayotganini gapiradi. Shuningdek, ular xorijiy tillarni o'rganish faoliyatida mnemonikadan foydalanishayotganini ta'kidlashmoqda. Keling bilib olamiz mnemonika nima o'zi?

Mnemonika - o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar



to'plamidir. Bunda, yangi noma'lum ma'lumotlar va tushunchalar inson ongida allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan saqlanadi.

Ayniqsa, mnemonika faqatgina xorijiy tilni endiga o'rganib boshlagan o'quvchilarga emas, balki avvaldan o'rganib kelayotgan, ma'lum bir darajada tilni o'rganib ulgurgan, o'quvchilarga ham til sohasida bilimlarini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Siz yangi bir xorijiy tilni o'rganishingiz uchun siz tanlagan xorijiy tilni grammatika va so'z boyligidan xabardor bo'lishingiz kerak bo'ladi. Siz grammatikani ustoz yordamida 3-5 oyda o'rganib chiqishingiz mumkin. Ammo so'z boyligichi? Buni ustoz bilan ma'lum bir muddatda tugatib bo'ladimi? Yo'q. Lekin eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni qisqa vaqt ichida yodlab olishingiz mumkin va keyin siz yodlagan so'zlaringiz yordamida ravon muloqot qilishingiz, chet tilidagi kitoblarni o'qishingiz, kinolarni ko'rish qobiliyatiga erishishingiz mumkin. Yangi so'zlarni yodlab so'z boyligingizni oshirishda mnemonikadan foydalanishingiz mumkin. Masalan, **T.O.G** usuli so'z boyligingizni oshirishda katta yordamchi bo'la oladi. Bu usul 3 qismdan iborat, yani **T (translation). O(object). G(gormonization)**. Bu usulda siz yodlayotgan so'zingizni birinchi navbatda tarjimasini o'rganasiz. So'ng, bu so'zni biror bir narsa(obyekt) bilan tasavvur qilasiz, agar narsa sizga yoqsa va ijobiy hissiyotlar paydo qilsa, o'rganayotgan so'zingizni eslab qolishingiz osonroq boladi. Uchinchi bosqichda, obyektни ma'lum bir vaziyatda harakatlanayotganini tasavvur qilasiz. Bu usul bilan siz, so'zni tarjimasini o'rganish baravarida uni qayerda qanday qo'llashni ham o'rganasiz. Masalan, dam - to'gon so'zini oladigan bo'lsak. Biz buni tarjima qildik. Ikkinchi bosqichda to'gonga so'ziga mos tushunchali obyekt olamiz, ya'ni to'g'orni tasavvur qilamiz. Uchunchi bosqichda esa to'g'orni toshayotganini va atrofni suv bosayotganini tasavvur qilishimiz mumkin.

Mnemonikani siz faqat til o'rganishni endigina boshlaganlar uchun emas, balki tildan anchagina xabari bor o'quvchilar uchun ham foydalana olasiz. Mnemonikani oldindan tildan xabardor bo'lgan o'quvchilar yozish, o'qish va gapirish amaliyotida ham bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun qo'llashlari mumkin.

Yozish amaliyotida, asosan, o'quvchilar essay yozishda fikr yetishmasligi va mos so'z birikmalarini qo'llay olmaslikdan aziyat chekishadi. O'quvchilar fikrlar va so'z birikmalarini eslab qolishda mnemonikadan foydalanishi boshqa usullarga qaraganda ko'proq foyda beradi. Yozish amaliyoti uchun asosan kategoriyalash metodi ko'proq tavsiya qilinadi. Bu metodda siz ma'lum bir mavzuni tanlaysiz va uni daftaringizning o'rtasiga aylana ichiga yozasiz. Aylanadan strelkalar chiqarib



shu mavzuga oid fikrlaringizni va soʻz birikmalarni yozasiz. Bu usul sizga maʼlum mavzu borasida fikr va soʻz birikmalarni miyyangizda maʼlum bir joyga toʻplashga va zarurat tugʻilganda undan osongina foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Xuddi shu usul bilan gapirish amaliyotidagi mahoratingizga sayqal bersangiz boʻladi. Gapirish amaliyotida ham bu metoddan foydalanishingiz sizda fikr va soʻzlar bazasini hosil qiladi. Natijada sizda tayyor resurs bor va endi faqat chiroyli talaffuz va intonatsiya bilan fikringizni ifodalab berishingiz kerak xolos.

Oʻqish amaliyotini koʻpchilik ekspertlar soʻz boyligi deb nomlashadi. Chunki siz matndagi soʻzlarni tushunmas ekansiz, berilgan matnni ham tushunmaysiz. Oʻqish amaliyotida matnlar bilan ishlayotganingizda juda koʻp soʻzlarga duch kelasiz va bu soʻzlar tufayli matnning maʼnosini toʻliq anglab yetmaysiz. Natijada qayta qayta oʻqiysiz. Lekin bu foydasiz. Bunday paytda, siz yangi, sizga notanish, soʻzlarni aniqlab, mnemonika yordamida qisqa vaqt davomida yodlashingiz kerak. Keyin matnni qaytadan oʻqiganingizda yaxshiroq tushunasiz. Bu sizga oʻqish amaliyotida oʻqib tushunish qobiliyatingizni oshirishga yordam beradi. Mnemonika tilga yaqindagina kirib kelganlar uchun soʻz boyligini oshirishda, lingvistik bilimli oʻquvchilarga yozish, oʻqish va gapirish amaliyotini rivojlantirishga katta hissasini qoʻshibgina qolmay, balki miyani maʼlumot eslab qolish qobiliyatini ham oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The mnemonic Imagination remembering as creative practice.Emily Keightly, Michail Pickering.
2. Use your memory.Tony Buzan.2019.
3. Zubaydova Nilufar. The importance of teaching vocabulary.Bridge to science:research works.2019.
4. ShohruhMirzo Rahmonov va Iskandar Sattbayev .Soʻz yodlash sirlari.Istiqlol Nuri.2015.